

## XII. DEMOGRAFIK HOLAT VA O'RTACHA ISH HAQQI

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yilning 1- oktabr holatiga viloyat doimiy aholisining soni 3 878,0 ming kishini tashkil etib, yil boshidan 75,3 ming kishiga yoki 2,0 % ga ko'paydi. Shundan, 2 179,7 ming kishi – shahar joylarida (jami aholi sonining 56,2 %) va 1 698,3 ming kishi – qishloq joylarida (43,8 %) istiqomat qiladi.

### Viloyat hududi va aholi zichligi (2021- yil 1-oktabr holatiga)

	<i>tashkil topgan sana</i>	<i>hududi, ming kv. km</i>	<i>doimiy aholi soni, ming kishi</i>	<i>1 kv. km ga aholi zichligi, kishi</i>
<b>Viloyat bo'yicha</b>	<b>15.01.1938</b>	<b>6,759</b>	<b>3878,0</b>	<b>573,8</b>
<i>shaharlar:</i>				
Farg'ona	1877 y.	0,1003	297,8	2969,2
Qo'qon	X asr	0,037	259,2	7006,1
Quvasoy	14.06.1954 y.	0,264	96,5	365,7
Marg'ilon	X asr	0,041	242,1	5903,9
<i>tumanlar:</i>				
Oltiariq	29.09.1926 y.	0,631	217,9	345,3
Qo'shtepa	16.04.1952 y.	0,368	197,1	535,6
Bog'dod	31.12.1964 y.	0,333	222,3	667,5
Buvayda	26.12.1973 y.	0,279	234,9	841,9
Beshariq	29.09.1926 y.	0,774	233,5	301,7
Quva	10.02.1939 y.	0,438	264,8	604,6
Uchko'prik	29.09.1926 y.	0,275	235,9	857,9
Rishton	09.01.1967 y.	0,307	207,3	675,3
So'x	27.02.1990 y.	0,221	80,2	362,9
Toshloq	12.04.1973 y.	0,243	208,7	858,7
O'zbekiston	17.04.1963 y.	0,689	245,1	355,8
Farg'ona	22.02.1964 y.	0,6117	219,8	359,3
Dang'ara	07.12.1970 y.	0,435	179,8	413,3
Furqat	09.04.1992 y.	0,305	121,2	397,2
Yozyovon	27.12.1980 y.	0,407	114,0	280,1

Farg‘ona viloyatining ma‘muriy-hududiy tashkil topishi  
1938 yilning 15-yanvaridan boshlanadi. Hududi 6,759 ming kvadrat kilometrni tashkil etadi yoki mamlakatimiz hududining 1,5 % ga teng. Viloyatimiz shimoldan Namangan viloyati, sharqdan Andijon viloyati, janub tomondan Qirg‘iziston Respublikasining O‘sh hamda Batken viloyatlari va g‘arbdan Tojikiston Respublikasining Xo‘jand viloyati bilan chegaradosh. Viloyaning So‘x tumani hamda Farg‘ona tumanining Shohimardon va Yordon, Rishton tumanining Cho‘ng‘ira qishloqlari viloyat, Respublika hududidan tashqarida, Qirg‘iziston Respublikasi hududida joylashgan.

Viloyat ma‘muriy hududiy bo‘linishiga ko‘ra 4 ta viloyat miqyosidagi shahar, 15 ta tuman, 5 ta tumanlar tasarrufidagi shaharlar, 197 ta shahar tipidagi posyolkalar, 1 227 ta aholi yashash punktlari hamda 1 041 ta mahalla fuqarolar yig‘inlaridan tashkil topib, ularda 3 878,0 ming nafar aholi istiqomat qiladi. Viloyatning ma‘muriy markazi Farg‘ona shahri.

Viloyatning iqlimi keskin kontinental, quruq. Tog‘ tizmalari Farg‘ona vodiysiga sovuq havoning kirib kelishini to‘siq turganligi bois, qishda ob-havo bir muncha mo‘tadil. Yozi issiq, iyulning o‘rtacha harorati 27,5°S, qishi nisbatan sovuq, yanvarning o‘rtacha harorati -3°S. Vegetasiya davri 217 kun, yillik o‘rtacha yog‘in miqdori 200-250 mm.ni tashkil etadi.

Tuproqlari bo‘z, qo‘ng‘ir, o‘tloqi, botqoq tuproqlar, qumtosh, mergel chaqirtoshlardan iborat bo‘lib, ekin ekilmaydigan tekisliklar qismida turli o‘simliklar, tog‘ yon bag‘irlarida pista, bodom o‘sadi. Yovvoyi hayvonlar (bo‘ri, tulki, qobon va boshqalar) kam uchraydi, sudraluvchilar, kemiruvchilar, qushlar, suv havzalarida baliqlar bor.


Geografik joylashuvi, tabiiy, mineral xom-ashyo resurslarining mavjudligi viloyatda azotli va fosforli o‘g‘itlar, neft mahsulotlari, ohaktosh, sog‘ tuproqlar (g‘isht, cherepisa uchun xom-ashyo), marmar, sement xom-ashyosi, shag‘al, yengil sanoat, xususan to‘qimachilik va oziq-ovqat mahsulotlari, qurilish materiallari ishlab chiqarish sanoatini rivojlantirish uchun yanada qulaydir. Viloyatda foydali qazilmalarning 43 turi aniqlangan bo‘lib, ulardan 21 tasi o‘zlashtirilmogda.

**Farg‘ona viloyati hududlari**  
**bo‘yicha doimiy aholi soni to‘g‘risida ma’lumot**  
*(2021- yilning 1-oktabr holatiga )*

	Doimiy aholi soni, ming kishi			Doimiy aholi sonining o‘shish sur‘ati, %da		
	jami	shu jumladan:		jami	shu jumladan:	
		shahar	qishloq		shahar	qishloq
<b>Farg‘ona viloyati</b>	<b>3 878,0</b>	<b>2 179,7</b>	<b>1 698,3</b>	<b>102,0</b>	<b>56,2</b>	<b>43,8</b>
<i>shaharlar:</i>						
Farg‘ona	297,8	297,8	-	101,8	100,0	-
Qo‘qon	259,2	259,2	-	101,5	100,0	-
Quvasoy	96,5	54,3	42,2	102,2	56,3	43,7
Mapg‘ilon	242,1	242,1	-	101,7	100,0	-
<i>tumanlar:</i>						
Oltiariq	217,9	164,1	53,8	102,0	75,3	24,7
Qo‘shtepa	197,1	76,1	120,9	102,5	38,6	61,3
Bog‘dod	222,3	114,0	108,3	102,1	51,3	48,7
Buvayda	234,9	110,5	124,4	102,2	47,0	53,0
Beshariq	233,5	82,0	151,5	101,7	35,1	64,9
Quva	264,8	122,7	142,1	101,7	46,3	53,7
Uchko‘prik	235,9	42,9	193,1	102,3	18,2	81,9
Rishton	207,3	132,2	75,1	101,9	63,8	36,2
So‘x	80,2	50,8	29,4	102,0	63,3	36,7
Toshloq	208,7	48,2	160,4	102,2	23,1	76,9
O‘zbekiston	245,1	106,0	139,1	101,8	43,2	56,8
Farg‘ona	219,8	137,7	82,1	102,1	62,6	37,4
Dang‘ara	179,8	42,0	137,8	102,4	23,4	76,6
Furqat	121,2	28,5	92,7	102,0	23,5	76,5
Yozyovon	114,0	68,6	45,3	102,0	60,2	39,7

Shaharlar ichida eng ko'p aholi Farg'ona shahrida 297,8 ming kishi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,8 % ga o'sgan) va tumanlarda eng ko'p aholi Quva tumanida bo'lib, 264,8 ming kishini tashkil qiladi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,7 % ga o'sgan).

**Hududlar kesimida doimiy aholi soninig taqsimlanishi**  
(2021 yil 1- oktabr holatiga; viloyat jami aholisiga nisbatan, %da)



**Doimiy aholi sonining yosh guruhlari bo'yicha taqsimlanishi**  
( yanvar-sentabr; kishi)

	2020- yil		2021- yil	
	<i>soni</i>	<i>ulushi, %da</i>	<i>soni</i>	<i>ulushi, %da</i>
<b>Jami aholi soni</b>	<b>3 752 034</b>	<b>100,0</b>	<b>3 819 963</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan yoshlari, yosh</i>				
0-2	240 623	6,4	258 592	6,8
3-6	302 940	8,1	303 619	8,0
7-13	466 858	12,4	479 589	12,5
14-17	220 957	5,9	224 323	5,9
18-24	422 365	11,3	402 734	10,5
25-30	424 939	11,3	433 466	11,3
31-40	580 558	15,5	590 671	15,5
41-50	447 286	11,9	459 047	12,0
51-60	359 005	9,6	362 911	9,5
61-70	195 692	5,2	210 293	5,5
71 yosh va kattalar	92 796	2,5	94 718	2,5

**Doimiy aholi sonining asosiy yosh guruhlari bo'yicha taqsimlanishi**  
( jami aholiga nisbatan, %da)

Viloyatda 2021- yil yanvar-sentabr oylarida ayrim yosh guruhlarning jamiga nisbatan ulushi sezilarli o'sishi kuzatildi: o'tgan yildagiga nisbatan 0-2 yoshdagi aholi ulushi 6,8 % , jamiga nisbatan 0,4 % ga, 61-70 yoshdagi aholi ulushi 5,5 %ga jamiga nisbatan 0,3 %ga o'sdi.

Hamda aksincha, avvalgi yilga nisbatan 18-24 yoshdagi aholi ulushi sezilarli kamaydi va jamiga nisbatan 0,8 %ga farq berdi.

**Yanvar–sentabrda viloyat bo‘yicha aholining  
tabiiy harakati koeffitsiyentlari**

<i>Ko‘rsatkichlar</i>	<i>ming kishi</i>		<i>1000 aholiga nisbatan</i>	
	<i>2020 yil</i>	<i>2021 yil</i>	<i>2020 yil</i>	<i>2021 yil</i>
Tug‘ilganlar	68484	74807	24,2	26,0
O‘lganlar	12356	13446	4,4	4,7
Nikohlar, <i>mingta</i>	21401	21947	7,6	7,6
Ajralishlar, <i>mingta</i>	1988	3219	0,7	1,1


**Tug‘ilish darajasi.** 2021 yilning yanvar–sentabrda tug‘ilganlar soni 74,8 ming kishini tashkil etdi va 2020 yilning shu davriga (68,5 ming kishi) nisbatan 6,3 ming kishiga ko‘paydi, shunga mos ravishda tug‘ilish koeffitsiyenti 26,0 promilleni tashkil qildi.

Tug‘ilish darajasining ko‘payishi viloyatning Uchko‘prik tumanida 26,0 dan 29,9 promillega, Oltiariq tumanida 24,1 dan 27,3 promille, Quvasoy shahrida 22,4 dan 25,2 promillega, o‘shisi kuzatildi.

**Aholining tabiiy harakati koeffitsiyenti**

*(2021 yilning 1- oktabr holatiga (1 000 aholiga nisbatan, promille)*

**tug‘ilish**



**Nikohlar va ajralishlar.** 2021- yilning yanvar-sentabrda shahar, tuman hokimliklarining FHDYo bo‘limlarida 21947 ta nikohlar va 3219 ta ajralishlar ro‘yhatga olindi. Ming aholiga nisbatan 7,6 ta nikoh (2020 yilning tegishli davrida 7,6 ta) va 1,1 ta ajralishlar (2020 yilning tegishli davrida – 0,7 ) to‘g‘ri keladi.

**Yanvar–sentabrda tuzilgan nikohlar  
va nikohdan ajralishlar soni**

*(birlikda)*

	<i>Tuzilgan nikohlar</i>		<i>Nikohdan ajralishlar</i>	
	<i>2020- yil</i>	<i>2021- yil</i>	<i>2020- yil</i>	<i>2021- yil</i>
<b>Viloyat</b>	<b>21401</b>	<b>21947</b>	<b>1988</b>	<b>3219</b>
<i>shaharlar:</i>				
Farg‘ona	1460	1663	297	463
Qo‘qon	1232	1438	227	341
Quvasoy	549	546	53	94
Mag‘ilon	1503	1449	109	232
<i>tumanlar:</i>				
Oltiariq	1421	1277	105	166
Qo‘shtepa	1210	1239	97	164
Bog‘dod	1212	1374	127	159
Buvayda	1315	1362	83	152
Beshariq	1186	1050	120	149
Quva	1368	1398	77	146
Uchko‘prik	1252	1485	90	168
Rishton	1226	1173	88	136
So‘x	279	342	27	84
Toshloq	1144	1137	71	136
O‘zbekiston	1374	1333	162	189
Farg‘ona	1269	1446	93	166
Dang‘ara	1076	991	69	123
Furqat	738	690	58	85
Yozyovon	587	554	35	66

**Migratsiya.** Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2021- yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatga ko‘chib kelganlar soni 8315 kishini, shu davr mobaynida ko‘chib ketganlar soni esa 10 522 kishini tashkil qildi. Migratsiya qoldig‘i minus 2 207 kishiga (2020- yilning shu davrida – -4507 kishi) teng bo‘ldi. Eng katta minus qoldiqlar Marg‘ilon shaharda (-678), Qo‘qon shaharda (-652) va Uzbekiston tumanida (-537) kuzatildi.


**Yanvar–sentabrda aholining migratsiya ko‘rsatkichlari**  
(kishi)

	Kelganlar		Ketganlar		Migratsiya saldosı	
	2020 yil	2021 yil	2020 yil	2021 yil	2020 yil	2021 yil
<b>Viloyat</b>	<b>6342</b>	<b>8315</b>	<b>10849</b>	<b>10522</b>	<b>-4507</b>	<b>-2207</b>
<i>shaharlar</i>						
Farg‘ona	2142	2753	1634	1757	508	996
Qo‘qon	546	390	1055	1042	-509	-652
Quvasoy	234	474	193	317	41	157
Mapg‘ilon	513	421	910	1099	-397	-678
<i>tumanlar</i>						
Oltiariq	128	191	365	362	-237	-171
Qo‘shtepa	373	496	507	424	-134	72
Bog‘dod	270	189	401	473	-131	-284
Buvayda	132	215	735	396	-603	-181
Beshariq	113	204	830	604	-717	-400
Quva	129	139	512	568	-383	-429
Uchko‘prik	73	297	588	416	-515	-119
Rishton	219	218	517	456	-298	-238
So‘x	4	93	33	38	-29	55
Toshloq	323	368	491	433	-168	-65
O‘zbekiston	177	42	656	579	-479	-537
Farg‘ona	533	729	543	617	-10	112
Dang‘ara	282	582	386	404	-104	178
Furqat	70	344	348	329	-278	15
Yozyovon	81	170	145	208	-64	-38

Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2021- yilning yanvar-sentabr oylarida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2 311,1 ming so‘mni tashkil qildi va 2020- yilning shu davriga nisbatan 12,1 %ga oshdi. Eng yuqori o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi Farg‘ona shaharda 3 149,2 ming so‘mni, Qo‘kon shaharda 2 673,3 ming so‘mga to‘g‘ri keldi.




**Yanvar-sentabr oylari davomida o'rtacha  
nominal hisoblangan ish haqi**  
(ming so'mda)



## O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqqining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi

(2021 yil yanvar-sentabr, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlarisiz ming so'mda)



O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqqining eng yuqori miqdori moliya va sug'urta faoliyatiga to'g'ri kelib, 5 994,2 ming so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich tashish va saqlashda 2 887,3 axborot va aloqada 2 872,9 va sanoat sohasida 2741,0 ming so'mdan iborat bo'ldi.

**O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**  
(yanvar-sentabr qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subektlarisiz, ming. so'mda)

	2020- yil	2021- yil	O'sish surati %da
<b>Viloyat</b>	<b>2062,1</b>	<b>2311,1</b>	<b>112,1</b>
<i>shaharlar</i>			
Farg'ona	2742,2	3149,2	114,8
Qo'qon	2243,1	2673,3	119,2
Quvasoy	2100,6	2250,4	107,1
Mapg'ilon	1885,6	2039,1	108,1
<i>tumanlar</i>			
Oltiariq	1619,9	1619,7	100,0
Qo'shtepa	1788,1	2011,3	112,5
Bog'dod	1907,1	2118,6	111,1
Buvayda	1512	1685,8	111,5
Beshariq	1485,2	1639,5	110,4
Quva	1730,1	1944,1	112,4
Uchko'prik	1745,7	1887	108,1
Rishton	1721,7	1914,7	111,2
So'x	1755,5	1841,9	104,9
Toshloq	1921,9	2401,4	124,9
O'zbekiston	1709,6	1948,4	114,0
Farg'ona	1488,2	1799	120,9
Dang'ara	1583	1816,6	114,8
Furqat	1842,1	2063,4	112,0
Yozyovon	1881,9	1997,1	106,1